

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI**

O'quv-uslubiy bo'limi
tomonidan ro'yxatga olindi

№ BQ60310900-260

"TASDIQLAYMAN"

O'zMU Jizzax filiali direktori

O.X.Turakulov

2024-yil "04" "07"

"4" "07"

2024-yil

"KONFILIKTLAR PSIXOLOGIYASI"

FAN DASTURI

(Tanlov fan)

Bilim sohasi: 300000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
Ta'lim sohasi: 310000 – Ijtimoiy va xulq-atvorga oid fanlar
Ta'lim yo'nalishi: 60310900 – Psixologiya (yoshlar psixologiyasi)

JIZZAX – 2024

Mazkur fanning fan dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 25-avgustdagi 365-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 60310900- Psixologiya (yoshlar psixologiyasi) bakalavriyat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

B.Norbekova

O'zMU Jizzax filiali, "Yoshlar psixologiyasi" kafedrasini mudiri, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD.

Taqrizchilar:

R.Abdurasulov

JDPU "Umumiy psixologiya" kafedrasini professori, psixologiya fanlari doktori.

Sh.Yuldoshev

O'zMU Jizzax filiali Oila psixologiyasi kafedrasini katta o'qituvchisi.

Fan dasturi "Yoshlar psixologiyasi" kafedrasining 2024-yil "12" 06 06 11 -sonli yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet uslubiy Kengashiga muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri [Signature] **B.Norbekova**

Fan dasturi "Psixologiya" fakulteti uslubiy kengashida muhokama etilgan va filial ilmiy-uslubiy Kengashiga muhokama qilish uchun tavsiya etilgan (2024 - yil "14" 06 11 -sonli bayonnoma).

Fakultet uslubiy kengashi raisi: [Signature] **N.Ajmov**

Fan dasturi filial ilmiy-uslubiy Kengashida muhokama etildi va filial Kengashida muhokama etishga tavsiya qilindi (2024 - yil "25" 06 11 -sonli bayonnoma).

O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari: [Signature] **R. Abduraxmanov**



I. KIRISH

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

“Konfliktlar psixologiyasi” fani ta'lim yo'nalishi bakalavriat bosqichida tahsil olayotgan talabalar uchun tanlov fani hisoblanadi. Mazkur kurs o'zida nafaqat talabalarga bilim berishni, balki ularni turli sohalarda samarali faoliyat olib borishga tayyorlashni ham nazarda tutadi.

Ushbu o'quv kursi konfliktlar psixologiyasining predmeti, vazifalari va usullari, ularning yuzaga kelish shart-sharoitlari, shaxsning o'z-o'zi bilan yuzaga keladigan konflikti, ijtimoiy tizimda yuzaga keladigan turli darajadagi konfliktlar, konfliktni oldini olish, konfliktlarni bartaraf etish, nizoli vaziyatlarni bartaraf etish kabi zarur bilimlarni berib, talabani kasbiy tayyorlashga nazariy jihatdan zarur bo'lsa, boshqa tomondan esa, talabalarni kelgusidagi kasbiy faoliyatga tayyorlaydi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad - Konfliktlar psixologiyasining asosiy muammolari va vazifalarini, uning sohalari va tizmini tushunish hamda malakali kadrlar tayyorlash yuzasidan olib borilayotgan pedagogik faoliyatda o'z ixtisosligi bo'yicha ularni hal qilishda bevosita ishtirok etish. Psixologiya bakalavriat yo'nalishi talabalariga gender psixologiyasi bo'yicha tayanch bilimlarni o'rgatishdan iborat.

Fanning vazifalari:

- konfliktlar psixologiya muammolarining rivojlanish manbalarini o'rganish;
- konfliktlar psixologiyaning vujudga kelish qonuniytlarini o'rganish;
- psixologiya sohasini o'rganishda konflikt psixologiyaning ahamiyatini ko'rsatish;
- konfliktlarga oid zamonaviy bilimlarning nazariy tamoyillarini o'rganish.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-Mavzu: Konfliktlar psixologiyasining predmeti, vazifalari va usullari.

Psixologiya fanida "konflikt" tushunchasining ta'rifi. Akademik fan sifatida nizoli vaziyatlar psixologiyasining predmeti va vazifalari. Konfliktlar psixologiyasi usullari

2-Mavzu: Konfliktologiya ilmiy fan sifatida.

Konfliktning o'rganishning asosiy yo'nalishlari. Konfliktologiyaning metodologiyasi va metodlari. Konfliktologiyaning asosiy tushunchalari. Konfliktni falsafiy jihatdan tushunish umumjamiyatdagi ziddiyatlilik sifatida.

3-Mavzu: Konfliktni yuzaga kelish shart-sharoitlari.

Konfliktga doir nazariyalarni qayta ishlash yo'nalishlari. Konflikt tipologiyasining asosiy yo'nalishlari. Konflikt tuzilishi. Konfliktlarning yuzaga kelishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. Konfliktni rivojlanish bosqichlari va yuzaga kelish shart-sharoitlari. Konfliktlarni konstruktiv va destruktiv tarzda rivojlanishi. Konflikt funksiyalari.

4- Mavzu: Shaxsning o'z-o'zi bilan yuzaga keladigan konflikti.

Shaxsning o'z-o'zi bilan yuzaga keladigan konflikt tushunchasi va ko'rinishlari. Shaxsning o'z-o'zi bilan yuzaga keladigan konfliktlarning sabab va oqibatlari. Shaxsning o'z-o'zi bilan yuzaga keladigan konfliktlarni oldini olishning shart-sharoitlari va usullari. Shaxsning o'z-o'zi bilan yuzaga keladigan konfliktlarni bartaraf etish usullari. Stressga bardoshlilik konfliktlarni oldini olish usuli sifatida.

5-Mavzu: Ijtimoiy tizimda yuzaga keladigan turli darajadagi konfliktlar.

Shaxslararo konfliktlar: pedagogik jarayonda oilada. Konflikt tuzilishi: tashkiliy, ishlab chiqarish, mehnat innovatsion konfliktlar. Konfliktlarni boshqarish xususiyatlari. Guruhiy konflikt. Guruhiy konfliktni yuzaga kelish mexanizmlari. Guruhiy konfliktlarni asosiy ko'rinishlari.

6- Mavzu: Konfliktni oldini olish.

Konfliktlarni oldini olishning usullari va profilaktik faoliyat. Shaxsiy konfliktlar muammosi. Hozirgi zamon menejmenti. Konfliktlar profilaktikasi haqida. Konfliktlarni oldini olish va ish etikasi talablari. Hazilning o'mi.

7-Mavzu: Konfliktlarni bartaraf etish

Konfliktdan chiqish taktikasi va majburlash metodi. Konfliktni oldini olishning ikki yo'nalishi. Konfliktni baholash muammosi va yashirin harakatlar taktikasi. O'zaro yutishning taktikasini amalga oshirishning asosiy mexanizmlari. Konfliktning hal etishning universal vositalari va ularning natijalari.

8-Mavzu: Muzokara konfliktni hal qilishning usuli sifatida

Muzokaraga umumiy tavsifnoma. Muzokaraga kirishish strategiyalari. Muzokara dinamikasi. Muzokaraga kirishishning asosiy usullari. Muzokara jarayonida vositachilik.

III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

1. Konfliktlar psixologiyasining predmeti, vazifalari va usullari
2. Konfliktni yuzaga kelish shart-sharoitlari
3. Shaxsning o'z-o'zi bilan yuzaga keladigan konfliktni
4. Ijtimoiy tizimda yuzaga keladigan turli darajadagi konfliktlar
5. Konfliktni oldini olish
6. Konfliktlarni bartaraf etish
7. Nizoli vaziyatlarni bartaraf etish
8. Muzokara konfliktni hal qilishning usuli sifatida.
9. Agressiya va zo'ravonlik.
10. Oilada konflikt.
11. Kreativ tafakkur va yoshlarni postindustrial jamiyatga tayyorlash.
12. O'smirlarda konfliktli vaziyatlarning psixologik tahlili.
13. Muloqot jarayonidagi ziddiyatlarni bartaraf etish va muloqotchanlikni tarbiyalash.
14. Oilaviy xayotni to'g'ri tashkil etish va uni ziddiyatlardan asrash.
15. Konfliktlarni boshqarish

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda ular darslik va o'quv qo'llanmalardan fan boblari va mavzularini o'rganish, tarqatma materiallar asosida ma'ruzalar qismini o'zlashtirish, maxsus adabiyotlar asosida fan bo'limlari

yoki mavzulari ustida ishlash, talabani o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish, faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari, nazariy va seminar mashg'ulotlar o'tish davomida talabalarni ijodiy jarayonga yo'naltirish, ularni tahlil qilish, mustaqil ishlashga o'rgatish, mashqlar bajarish, badiiy asarlarni psixologik jihatdan tahlil qilish, klassik asarlar matni ustida ishlash, adabiy jarayonni psixologik tomondan kuzatib borish kabi vazifalarni amalga oshiradi.

Mustaqil ish mavzulari

1. Ziddiyatni yuzaga keltiruvchi vaziyatlar
2. Konfliktning yaratuvchanlik imkoniyati
3. Konfliktogentlarning turlari
4. Konfliktning yechimini topish usullari
5. Konfliktlarni boshqarish
6. Konfliktdagi muloqot madaniyatining talablari
7. Konfliktdagi agressiya va zo'ravonlik.
8. Oilaviy munosabatlarning buzilishiga olib keladigan ba'zi holatlar.
9. Islomda inson huquqlari: ayol va erkak.
10. Mediatsiya- vositachilikning asosiy qoidasi sifatida
11. O'smirlarda konfliktli vaziyatlarning psixologik tahlili
12. O'smirlardagi ichki nizolar va ularni bartaraf etish usullari
13. Yoshga oid ruhiy holatlar
14. Psixosensor buzilishlar
15. Xis-tuyg'ularning turlari
16. Konfliktning o'rganishning asosiy yo'nalishlari.
17. Konfliktologiyaning metodologiyasi va metodlari
18. Konfliktologiyaning asosiy tushunchalari
19. Konfliktga doir nazariyalarni qayta ishlash yo'nalishlari
20. Konfliktlarning yuzaga kelishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.
21. Konflikt funksiyalari
22. Guruhiy konfliktlarni asosiy ko'rinishlari

23. Konfliktning oldini olishning usullari va profilaktik faoliyat
24. Shaxsiy konfliktlarning asosiy muammosi
25. Hozirgi zamon menejmenti
26. Konfliktlarni profilaktikasi haqida
27. Konfliktlarni oldini olish va ish etikasi talablari
28. "Yetakchilik" va "boshqaruv" tushunchalarining ta'rifi.

Izoh: Mustaqil ta'lim mavzularini ishchi dasturidagi mashg'ulotlar uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish tavsiya etiladi.

V. Fanning o'qitilish natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

- konfliktlar psixologiyasining fan sifatida nazariy va metodologik asoslari va ilmiy fan sifatida shakllanish jarayoni haqida *tasavvurga ega bo'lishi*;

- konfliktlar psixologiyasida shaxsning o'z-o'zi bilan yuzaga keladigan nizolarni bartaraf etish usullari, stressga bardoshlilik nizolarni oldini olish usuli sifatida, shaxslararo nizolar:

- konfliktlar psixologiyasi fani pedagogik jarayonda oilada, konflikt tuzilishi: tashkiliy, ishlab chiqarish, mehnat innavatsion konfliktlar, konfliktlarni boshqarish xususiyatlari, guruhiy konflikt, guruhiy konfliktni yuzaga kelish mexanizmlari, guruhiy konfliktlarni asosiy ko'rinishlari mavzularidan o'tkaziladigan seminar mashg'ulotlarida aqliy hujum guruhli fikrlash, kichik guruhlardagi munozara, loyha, bumerang, 3x4, kabi pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutiladi.

VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari

- ma'ruzalar;
- interfaol keys - stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni tayyorlash;
- individual loyihalar;

- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

VII. Kreditni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish yoki testlarni topshirish.

Asosiy adabiyotlar.

1. Vorobjeykin I.E., Kibanov A.Ya., Zaxarov D.K. Konfliktologiya, Uchebnik dlya vuzov. M.: "Izd-vo" 2004 g.
2. Ansupov A. Ya., Shipilov A.I. Konfliktologiya, M.: "Izd-vo" 1999
3. Utkin A. Ya. Konflikt: teoriya i praktika. M. "Izd-vo" 1998 g.
4. Zdravomyslov A. G. Sotsiologiya konflikta. M.: "Izd-vo" 1995 g.
5. Gromova O. N. Konfliktologiya. M.: "Izd-vo" 1993 g.

Zaysev A. K. Sotsialnyy konflikt na predpriyatii. — Kaluga: KISI. 1993

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Xrestomatiya po sotsialnoy psixologii. / Pod red. Kutasovoy T. V. — M.: MGU. 1994.
 2. Konflikty v kollektive i puti ix preodoleniya. — L.: VIPK. 1991.
 3. Prikladnaya konfliktologiya. Xrestomatiya. Sost. K.Selchyonok. M.: M. "Izd-vo" 2003
 4. Xasan B.I. Konstruktivnaya psixologiya konflikta. SPb., M. "Izd-vo" 2003.
 5. Internet ma'lumotlari quyidagi saytlardan olinadi:
 6. Kon I.S. "Men" ning kashfiyoti. — M.: Politizdat, 1978. — 367 b.
- Eng so'nggi falsafiy lug'at: 3-nashr, tuzatilgan. Minsk: Kitob uyi, 2003. - 1280 p.
7. Seksologik entsiklopediya: 2-nashr. — M.: Alatea+, 2006. — 1049 b.

8. Sotsiologik ensiklopedik lug'at. Rus tilida til Ed.-koord. - akademik RAS G.V.Osipov. - M.: INFRA-M - NORM, 1998. – 488 b.
9. Shapiro V.D. Demografik xulq-atvorni sotsiologik tadqiq qilish metodologiyasi. M.: Ta'lim, 1985 yil. – 144 b.

Internet-sayti:

1. <http://textshare.tsx.org>
2. <http://www.mgimo.ru/fileserver/>
3. <http://www.ssu.runnet.ru/...>
4. http://www.philol.msu.ru/~rlc2001/ru/sch_14.htm
5. <http://www.voppsy.ru>
6. <http://flogiston.ru/arch>
7. <http://psychol.ras.ru>
8. <http://psyberia.ru>